

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA OT SO'Z TURKUMI MAVZUSINI O'QITISHDA
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI****Turdibayev Ilyos Tavekelovich***Qoraqalpoğiston Res, Qoñg'irot tumani, 14-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

So'z turkumlari ustida ishslash metodikasining lingvistik asosi so'zlarning leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko'ra turli guruhlarga ajratilishi, ya'nii so'z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi.

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'l-lar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinni foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limga o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtida ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

—Ot" mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi.

Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o'rganish izchilligi belgilangan.

Boshlang'ich sinflarda otni o'rganish vazifalari quyidagilar:

- 1) „Ot" haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;
- 2) kim? so'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan so'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni gan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;
- 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan ornlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;
- 4) otlarda son (otning birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish;
- 5) otlarni egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;

- 6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;
- 7) o'quvchilar lug'atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinni foydalanish malakasini o'stirish;
- 8) so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

Bu vazifalarning har biri alohida etnas, balki bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, „Ot“ mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi.

Masalan, 1-2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo'shimchalarini bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari va fikrlesh qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi.

So'z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma'nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiyl leksik ma'nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (kishi, (lush, hayvon, asalari), yer va osmonga oid narsalar (quyosh, yulduz, daryo, tog'), o'simliklar (paxta, beda, gul), voqealar (yig'in, majlis), tabiat hodisalari (shamol, bo'ron, yomg'ir, momaqaldoiroq), belgi-xususiyat (ahillik, kuchlilik, samimiyat), harakat-holat (uyqu, sevinch, kurash), o`rin va vaqt (yoz, bahor, joy) nomlarini bildiradi.

Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik qo'shimchalarini bilan o'zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe'l bilan birika oladi.

Otning ma'nolari va grammatik belgilari xiyla murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o'quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ot so'z turkumini o'rgatishda quyidagi didaktik o'yinlardan samarali foydalanish mumkin.

«Maqollarda antonimlar»

Ma'lumki, o'zbek xalq maqollarida antonimlar ko'proq uchraydi. Shu bois bu shartda o'quvchilar navbatma-navbat ot antonimlar ishtirok etgan maqollaridan aytadilar. Masalan, «yaxshiga yondash, yomondan qoch», «do'st achitib gapirar, dushman kuldirib gapirar», «kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda» va x.k.

«Zinapoya» usuli

O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. So'ng xattaxtaga ma'lum bir shaklda «zinapoya» chiziladi.

Ma'lumki, antonimlar o'z jufthiklariga ega. Shundan kelib chiqib, ushbu juftlikning bittasi «zinapoya» ga yozib qo'yiladi, ikkinchisini esa guruhlardagi o'quvchilarning o'zları topadi, ular zinalardan bosh zinaga chiqib borishadi. Bunda o'quvchilarda tezkorlik talab etiladi. Chunki qaysi guruh o'quvchilari birinchi bo'lib bosh zinaga chiqsa, ular g'olib bo'ladi. Sinfda nechta o'quvchi bo'lsa, zinalar soni shuncha bo'ladi.

«Izohli lug'at»

Buning uchun o'quvchilar ikki guruuhga bo'linadilar. 1-guruuh ishtirokchilari so'z birikmasi, frazeologik birikma yoki tasviriy ifodalarni aytadilar. 2-guruhdagi o'quvchilar esa 1-guruhdagilar aytgan so'z va birikmalar ma'nosini tezkorlik bilan izohlab beradilar. Sharjni bajara olmagan guruh mag'lub hisoblanadi. Bu o'yin quyidagicha amalga oshiriladi:

O'zbekning shoh taomi: palov
 Ertalabki ovqatlanish: nonushta
 Ilonning yog'ini yalagan: ayyor .
 Dala malikasi: makkajo'xori
 Aql gimnastikasi: shaxmat
 Tog' malikasi: archa va x.k.

Bu o'yinlarni ona tili darslarida 4-sinflarda o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunday o'yinlar faqat bir mavzu doirasida cheklanib qolmay bir qancha mavzularda, ko'proq takrorlash darslarida o'tkazilishi mumkin.

3-4- sinfda “So'z turkumlari” bo`limi o'rganilayotganda quyidagi kabi savollardan foydalanish mumkin:

1. So'zlar nima uchun turkumlarga bo'linadi?
2. Ot qanday qo'shimchalar bilan qo'llanadi?
3. Egalik qo'shimchalari va ularning vazifasi nima?
4. Kelishik qo'shimchalari vaular qanday vazifa bajaradi?
5. Sifat va ot turkumining o'zaro qanday bog'liqligi bor?
6. Ot bilan fe'lning o'zaro qanday bog'liqligi bor?
7. Fe'llardagi zamon qo'shimchalari qanday ma'nolarni bildiradi?
8. Fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari qanday ma'nolarni bildiradi? va hokazo.

1- savolda o'quvchilar quyidagi javoblari bilan qatnashadilar:

- So'zlar turli ma'nolarni bildiradi.
- Ayrim so'zlar narsa ma'nosini bildiradi.
- Ba'zi so'zlar shaxs ma'nosini bildiradi.
- So'zlar harakat ma'nosini ham bildiradi.
- So'zlar belgi ma'nolarini bildiradi.
- So'zlarni ma'nolariga ko'ra turlarga bo'lib o'rgansak oson bo'ladi.

4- sinfda 2- savolga quyidagicha javob berdilar:

- Otlar ko'plik qo'shimchasini oladi.
- Otlar - lar qo'shimchasini oladi.
- Otlar ot yasovchi qo'shimchalarni oladi.
- Otlar - chi qo'shimchasini oladi.
- Otlar - dosh qo'shimchasini oladi va hokazo.

Otlarning egalik qo'shimchasi (-im,- ing, -si,- imiz,- ingiz,- lari) qo'llangan holatlari, otlarning kelishik qo'shimchalari bilan ishlatalgan holatlari gaplar tarkibida ko'rsatildi va so'roqlari yordamida otlar aniqlatildi. O'quvchilarda “Aqliy hujum” orqali “Otlar yana boshqa

qo'shimchalar bilan ham qo'llanar ekan. Ular qanday qo'shimchalar ekan?- degan qiziqish paydo bo'ldi.

Shundan so'ng ularga quyidagi savollar berildi:

- Otlar oladigan qo'shimchalar haqida qanday ma'lumotlarni bilar edingiz?
- Ot oladigan qaysi qo'shimchalarni bilmas ekansiz? Ularni bilishni xohlaysizmi?

Ko'rinish turibdiki, o'qituvchining savoli - o'quvchilar bilish qobiliyatlarini boshqarish vositasi. Savollar qaysi ma'noda yoki vaziyatda qo'llanishiga qarab, o'quvchilarni ilgarilab borishga, bilimlar sari intilishga undaydi, ularni fikrlash darajasini oshiradi. O'quvchilar "Aqliy hujum" orqali fikrlarning qadr -qimmatini, umumiyl tushunish va tasavvurni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishini anglab boradilar.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullardan biri "Klaster" usulidir. Klaster so'zi bog'lam ma'nosini bildiradi. Klasterlardan darsning da'vat, anglash va fikrlar bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu metod turli xil g'oyalarni o'rtasidagi aloqalar tog'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilma. Bu metod mavzuning o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. "Klaster" metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda ishslash va guruh-guruh bo'lib ishslashda foydalanish mumkin.

Mazkur metod o'rganilayotgan til hodisasini umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni toppish imkoniyatini yaratadi. "Klaster" da sinf yozuv doskasiga yoki katta varaqqa kalit so'zlar, so'z birikmalari yoki gaplar yoziladi va kalit so'zlar til hodisasining aloqadorligiga qarab bog'lab boriladi. Klaster tuzishda, agar u doska yoki katta varaqda sinf jamoasi bilan bajarilayotgan bo'lsa, barcha o'quvchilarning ishtiroy etishi shart.

Masalan, so'z turkumlarini o'rganishda tarmoqlash usulidan foydalanilganda o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishi kuchayadi. Tarmoqlash usulidan 3-sinfda "So'z turkumi" tushunchasini hosil qilishda foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarga quyidagi savolni beriladi:

- So'zlarni ma'nolariga ko'ra qanday turlarga bo'lib o'rganiladi?

Ularning javobini doskaga yozib boriladi.

Shundan so'ng shaxs va narsa bildirgan so'zlar ot; belgi bildirgan so'zlar sifat; harakat bildirgan so'zlar fe'l; miqdor bildirgan so'zlar son degan atama bilan

tanishtirildi va yuqoridagi so'zlar tarmoqqa kiritildi.

- O'ylang ot, sifat, fe'l, sonni bitta so'z bilan nima deb nomlash mumkin?

So'z turkumlari mavzusi bo'yicha klaster tuzishdan mavzuni o'rganmasdan oldin foydalanish o'quvchilarni yangicha fikr yuritishga undaydi. Metodist olimlar aytganidek, klasterni mavzuni o'rganishni boshlash jarayonida tuzish "bilimlarga yetib borish strategiyasi" ekanini isbotlaydi.

4- sinfda "So'z turkumlari" bo'limi yuzasidan umumlashtiruvchi takrorlash darsida "Zig-zag" metodi ham yaxshi samara berdi. Sinf jamoasini kichik guruhlarga bo'ldik. Har bir jamoada oltitadan o'quvchi bo'ldi, har bir guruhdha boshqaruvchi belgilandi. U jamoasi tomonidan aytilgan fikrlarni to'ldiradi va sistemaga soladi. Guruhlarga ajratishda rangli doirachalardan foydalandik. Bir xildagi doiracha olgan bolalar bir stol atrofida birlashdilar. Bunda kuchlarning teng

bo'lishiga e'tibor berdik.

1- guruh uchun.

1. 4- sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?
2. Ot so'z turkumidagi so'zlarga qaysi qo'shimchalar qo'shiladi? Otga qo'shiladigan qo'shimchalarning vazifalarini aytинг.

2- guruh uchun.

1. 4- sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?
2. Otning belgilarini bildiradigan so'z turkumi qaysi? U otning qanday belgilarini bildiradi?

3- guruh uchun.

1. 4- sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?
2. Ot, sifat, fe'l yasovchi qo'shimchalarni klasterda ifodalang va ularni misollar bilan tushuntiring.

4- guruh uchun.

1. 4- sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?
2. Ot, sifat, fe'l yasovchi qo'shimchalarni klasterda ifodalang va ularni Misollar bilan tushuntiring.

5- guruh uchun.

1. 4- sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?
2. Son so'z turkumining xususiyatlarini klasterda ifodalang. Sonlar nimaning miqdori va tartibini bildiradi?

O'quvchilarning jamoasi vazifani bajarib bo'lishgach, guruhlar almashtirildi, ya'ni boshqaruvchi guruhidagi o'quvchilarni ikkita va bitta qilib boshqa guruhlarga tarqatdi.

Yangi tuzilgan jamoada har bir guruh vakili tartib bilan o'z bilganlarini boshqalarga tushuntirib berdi. Shundan so'ng o'rganilganlar yuzasidan taqdimot bo'ldi.

O'qituvchi savollar yordamida sinf o'quvchilarining bilimlarini aniqlaydi.

O'quvchilar tuzgan klasterlarini kalit so'zlarning ma'no va xususiyatlarini izohlab beradi.

O'quvchilarning nazariy bilimlarini amalga tadbiq etish ko'nikmalarini aniqlash uchun mashqlar bajariladi. Bunda ham mustaqil ish metodidan foydalanib,

har bir guruh uchun alohida topshiriqlar beriladi.

1-guruh uchun topshiriq. "O'qish kitobi" dagi Sh. Sa'dullaning "

Laqma it" asaridan kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlab jadvalga joylang. Ularning imlosini esingizda tuting. Namuna:

| Asar nomi | Kim | | Nima? | | |
|--------------|----------|-----------|--------|-----|--|
| | Yozuvchi | Kasb nomi | Daraxt | Gul | Hayvon |
| 1."Laqma it" | | | | | It, kuchuk, Moshxon, echki, sigir, govmush, Olaqashqa, xo'roz, tovuq, kurka, o`rdak |

2- guruham uchun topshiriq. ”O'qish kitobida” dagi Abdulla Oripovning Dehqonbobo va o'n uch bolakay” qissasi asaridan (4- sinf) fe'llarni topib, alifbo tartibida yozing.

Boshqa guruhlar uchun ham shu xildagi topshiriqlar beriladi.

Bu metod o'quvchilarini jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasining shakllanishiga, vaqtning tejalishiga yordam berdi.

So'z turkumlarini o'rganishda ” Qora quti” metodidan ham foydalandik. Bunda o'quvchilar juft bo'lib ishladilar. Har bir juftlikka ” Ot, sifat, fe'l, son turkumining moniyatini yorituvchi tayanch so'zlar, raqamlar, belgilarni kartochkalarga qayd eting” topshirig'i berildi.Ular turli grammatik belgilar, sxemalar, raqmlar yozilgan kartochkalar tayyorladilar. O'quvchilar hamkorlikda bajargan ishlardan (kartochkalardan) namunalar keltiramiz:

1- kartochka.

Chiziqlar o'rniga mos so'zlarni qo'yib gap tuzing.Tuzgan gapingizdag'i so'zlarning turkumini aniqlang.(kartochkada chiziqlar beriladi)

2- kartochka.

O'zak so'z yasovchi qo'shimcha so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarga mos so'z toping . Uning turkumini aniqlang.

3- kartochka.

Berilgan tayanch so'zlar yordamida rasmdan foydalanib ” Ikki do'st” mavzusida hikoya tuzing.

4- kartochka.

2, 2006,4, 7, 8, 11- raqamlarini harfiy ifodalar bilan yozib, o'zingizning hayotingiz bilan bog'liq matn tuzing va yozing.

5- kartochka.

To'lqinli chiziq, bitta to'g'ri chiziq, ikki to'g'ri chiziq belgilar bo'yicha gap tuzing.

So'z turkumlarini o'rganishda ”Beshinchisi (oltinchisi, yettingchisi) ortiqcha” metodidan ham foydalanish mumkin. Buni biz ” Ortiqchasini ajrat” degan topshiriq bilan berdik. O'quvchilarga bir turkumdagi so'zlar ichiga boshqa turkumga doir so'zlar arlashtirib berildi. O'quvchilar ular ichidan boshqa turkumdagi so'zlarni ajratib olishdi va nima uchun ajratib olish sababiui izohlab berishadi. Bu uslni biz nkartochkalar yordamida va kompyuterda bajartirdik. Ortiqchasini ajratishgandan so'ng mavzuga taalluqli so'zlarni husnixat bilan daftarlariiga yozdirdik.

Berilgan topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

Otlar ichidan ortiqchasini ajrat.

Daraxt, suv, osmon, ko'k, mard, kamalak, yomg'ir, tiniq.

Sifatlar ichidan ortiqchasini ajrat.

Baland, keng, choynak, piyola, tor, katta, past, cho'mich, kapkir, kichik.

Fe'llar ichidan ortiqchasini ajrat.

Yuvindi, tebrandi, yugurdi, dutor, rubob, chrchadi, yangradi.

Ma'lumki, savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni grafik ifodalar ostida anglab, tushunib boradilar.

Ona tili darsliklarida ham grafik ifodalardan foydalaniлади. Masalan, 1-sinfda ayrim harflar imlosi katakchalar ifodasidan joy nomlarini topib qo'llashda(124- mashq), topishmoq she'rning javobi o'rnida (128- mashq) belgi bildirgan so'zlarni gap mazmuniga mos va o'rini

qo'llashga o'rgatishda (139- 142- mashq) gap mazmuniga mos harakat bildirgan so'zlarni qo'yishda (182- mashq), narsa va harakatni bildirgan so'zlardan gap mazmuniga mosini tanlashga o'rgatishda (170- mashq) to'g'ri chiziq ifodasidan foydalanilgan.

2- sinf "Ona tili" darsligida ayrim harflar imlosida grafik belgi sifatida nuqta belgisidan , krossvorddan, shaxs va narsa nomini, belgini, sanoq va tartibni, harakatni bildirgan, so'zlarni gap mazmuniga mosini tanlab qo'yishda uch nuqta belgisidan foydalanilgan.

3- sinfda "Ona tili" darsligida so'z tarkibini o'rganishda, otning ma'no turlarini o'rganishda, gap bo'laklarining bog'lanishida grafik tasvirdan foydalanilgan.

4- sinf "Ona tili" darsligida ham shu kabi grafik tasvirlar qo'llangan.

Yuqoridagi tahsil shuni ko'rsatadiki, ona tili darsliklarida grafik tasvirlardan

grammatik qoidasini anglatishdagina foydalanilgan. Lekin bu grafik tasvirlarda maqsadga yo'naltirilgan holda izchil rivojlantiruvchi tamoyil nazrada tutilmagan. Grafik tasvirlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining mavhum tafakkurini o'stirishda juda qo'l kelishi bilan birga, o'quvchining tilning yozma shaklini egallashga bo'lgan qiziqishini oshiradi, tilning bir butun qoliplangan Sistema ekanini anglashlarini ta'minlaydi. Ayniqsa, o'zlashtirishi qiyin o'quvchilarga kata metodik yordam bo'ladi. Grafik tasvir ijodiy xarakterda bo'lsa, ular o'quvchilarning ijodiy fikrlashlarini rivojlantiradi, aktivlashtiradi. Topshiriqni bajarishda o'z kuchiga ishonchni paydo qiladi. Grafik tasvirlardan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yishda ona tili ta limi oldida turgan masalalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, grafik tasvirlarning turini belgilab olish;

Ikkinchidan, grafik tasvirlarning grammatik mavzular bo'yicha izchil tizimini ishlab chiqish;

Uchinchidan, grafik tasvirlardan ta'lim jarayonining qaysi bosqichida foydalanish zarurligini belgilab olish;

To'rinchidan, grafik tasvirlardan foydalanish usulini ishlab chiqish. Hozirgi kunda grafik tasvirlardan tovush ifodasi bo'lgan katakcha , bo'g'in ifodasini, so'z ifodasi, o'zak, qo'shimchalar ifodasi, gap ifodasi,gap bo'laklari ifodasi mayjud.

Ko'rindaniki, grafik tasvirlardan ona tilidan o'rganiladigan barcha mavzularda foydalanish mumkin. Buning uchun grafik tasvirning izchil sistemasini ishlab chiqish lozim. Ishlab chiqilayotgan grafik tasvirlari topshiriqlar ko'zlangan ta'limiy maqsadga yo'naltiriladi. Grafik tasvirlari yangi nazariy qoidani o'rganishda, mustahkamlashda qo'llab ko'rdik. Ular mavzuni yaxshi o'zlashtirishlariga katta yordam berdi.

Masalan, 4- sinfda ot turkumini o'rganish jarayonida asosiy ta'limiy maqsad

o'quvchilarning ot turkumiga oid so'zlarni o'z so'ziga aylantirish, ularning grammatik shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanishga o'rgatish bo'ldi. Buning uchun quyidagi tizimdagи grafik tasvirlardan foydalanildi:

1. Yil fasllarining nomi, harakati, belgisi ham adashdi.Sxemalariga qarab, kim birinchi ularni tartiblashtiradi?

Oppoq, yoz, yog'adi, qish, kuz, bahor, muzlaydi, ko'karadi, yashil, isiydi, issiq, sarg'ayadi, to'kiladi, sariq.

2. O'zingizga yoqqan fasl haqida matn tuzib yozing. (o'quvchilarga matn sxemasi berilishi mumkin) Kim sxemalarni tez to'ldiradi?

Yil qaysi fasl bilan boshlanadi?

Qishda qushlar qayoqqa uchib ketadi?

So'zlardan sxemaga mos gap tuzing. (Sxemalar tavsiya etiladi)

Qor, qish, oppoq, oq, choyshabga, yerni, o'ragan, keldi.

Gapni birikmalarga ajrating.

Rasmlarni kuzating. Ularni biror tartibda qo'ying. Ulardan bir voqeani ifodalovchi hikoya tuzish mumkin bo'lsin. Ikkala guruhga bir xil rasmlar beriladi. Hikoya yuzasidan grammatik topshiriqlar ham beriladi. Ularning ijodiy ishlari taqqoslanadi va baholanadi.

"Kim ko'p so'z tuzadi?" o'yini. Kartochkalarga bosma harflar tarqoqlikda yozib qo'yiladi. O'quvchilar shu harflar ishtirot etgan so'z tuzadilar. Bu o'yin kompyuter dasturiga ham kiritilishi mumkin.

1. Berilgan harflar ishtirokida otlar tuzib yozing.

2. Berilgan harflar ishtirokida sifatlar tuzib yozing.

3. Berilgan harflar ishtirokida fe'llar tuzib yozing.

4. Berilgan harflar ishtirokida turli turkumga oid so'zlar tuzib yozing. Kartochkalardan namunalar:

TXN O A B L K I U

Tuzilgan so'zlar: Non, nok, ota, ona, bola, kaklik, kakk, tulki, ukki, tok, bobo, aka, uka, xon va hokazo. Bu o'yin bajarilgach, Grammatik mavzu bilan bog'liq topshiriqlar beriladi. Masalan, tuzgan so'zlariningizga so'roq bering. Ularni ma'nosiga ko'ra turlarga ajrating.

"Grammatik topishmoqlarni topish" o'yini. Grammatik topishmoqlar o'rganilayotgan mavzular bilan bog'liq bo'ladi. Bunday topishmoqlardan darsda motiv yaratishda, ya'ni o'quvchilarni yangi mavzuni o'rganishga qiziqish uyg'otishda, ularni harakatga keltirishda foydalanish yaxshi natija beradi. Quyida so'z turkumlariga doir Grammatik topishmoqlardan namunalar keltiramiz.

- dosh yasovchi qo'shimcha,

Deb javob berdi Sobir.

So'z o'zgartuvchilarni

Bilarkan Abduqodir.

Bunga ta'rif ber endi,

Jim o'tirgan Bahodir.

Nomi aytilgan o'quvchi ot yasovchi va otlarga qo'shiladigan so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarga ta'rif beradi.

Atash bor ma'nosida

Bosh harf bor imlosida.

Qaramoqda, qaramoqda,

Barmoqda ham bormoqda.

Qaysi so'z ot, qaysi fe'l?

Kim topsa to'g'ri javob,

Shu bola hozirjavob.

Qoning, noning, taraning,

Kitobing, sening tuning.

Qaratqich kelishikning

Qo'shimchasi qaysi – ning?

“ Kim ko’p eslab qoladi ?” deb nomlagan holda o’tkazish mumkin. Bu diktantning maqsadi xotirani ishga solish va imloviy ko’nikmalarini shakllantirishdir.

Bunda o’qituvchi har bir gapni bir marta o’qiydi. O’quvchilar yodida qolganlarini yozadi. O’qituvchi bir oz pauzadan so’ng ikkinchi gapni o’qiydi. O’yin - diktantning materiali sifatida so’z olinishi ham mumkin. Unda ham o’qituvchi 3 ta so’zni bordaniga o’qiydi va 10 - 15 soniya pauza qilinadi. O’quvchi eslab qolganini yozadi. Keyin yana uch so’z o’qib beriladi. Bunday tipdagi o’yin lug’at diktantiga 1 - sinfda 5 - 8, 2 - sinfda 8 - 10, 3 - sinfda 10 - 12, 4 -sinfda 12 - 15 so’z olinadi. Diktant yozib bo’lingach, har bir o’quvchi diktantidagi so’zlar sonini sanaydi. O’qituvchi oldindan diktantning to’liq matnini yozib, ustini bekitib qo’yan bo’ladi. O’quvchilar diktantini tekshirayotganda uning ustini ochib qo’yadi.

O’quvchilarning bahosi tushirib qoldirgan so’zlar soniga qarab pasaytiriladi. O’quvchilar diktantni yozib bo’lishgach, o’rganilgan mavzularidan kelib chiqib topshiriqlar berilishi mumkin. Masalan, “ So’zlardagi unlilarning tagiga chizing ”, “ Ajratib ko’rsatilgan so’zga ma’nodosh so’z toping ”, “ Shu so’zlar ishtirokida gap tuzing ”, “ Gap tuzing va tuzgan gaplaringizning bosh va ikkinchi darajali bo’laklarini aniqlang, tagiga tegishlicha chizing ” kabi.

Dastlabki paytlarda ohangdosh so’zlardan foydalanish lozim (ustun, tutun, osmon, somon kabi). Bu o’ynni dastlabki paytlarda “ Eslab qol ” deb nomlash mumkin.

Diktant yuzasidan o’quvchilar bilan quyidagi savollar asosida suhbat o’tkazish mimkin. Inson qancha so’zni xotirada saqlab qola oladi ? Nima uchun birov so’zlarni ko’p eslab qoladi, boshqa birovlar kam so’zni eslab qoladi.

Suhbatdan so’ng o’quvchilarga ko’cha, daryo, shahar, kishilarning ismi, badiiy asar nomlarini eslab qolishga harakat qilishlari aytildi. Shundan so’ng o’quvchilarning o’zlari bu diktantni yozdirishni talab qila boshlaydilar. Ko`rinadiki, boshlang`ich sinf ona tili darslarida turli xil interfaol metodlari va texnika vositalaridan unumli foydalanish mumkin bo’ladi. Bularning barchasi darsning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi

Xulosa

Mamlakatimizda ijtimoiy sohadagi o’zgarishlar va intellektual salohiyatning oshib borishi zamonaviy bilimlarning egallanishiga turtki bo’ladi. Ta’lim-tarbiya sohasidagi innovasion o’zgarishlar va ularni zamonamizning yangi ilg’or talablariga javob beradigan darajaga olib chiqish muhim vazifa va maqsadlardan biribir. Bu borada “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” ning qabul qilinishi va to’plangan tajribani tahlil qilish, umumlashtirish asosida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan jamiatning barcha jabhalari, xususan, ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni yo’lga qo’yishga qaratilayotgan e’tibor samarasi o’laroq, bugun jamiatning barcha sohalari va xalqimiz turmush tarziga kompyuter texnologiyalari chuqur kirib borayapti.

Jamiyat hayotiga kompyutering keng miqiyosda kirib kelishi fuqarolarga axborot olishga bo’lgan imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Tobora shakllanib borayotgan kompyuter texnologiya axborotni yetkazish va qabul qilishda yangi munosabatlarni vujudga keltiradi, fikrlashning yangi turini hosil qiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llaniladigan axborot vositalaridan texnikalar alohida ahamiyatga egadir.

Texnika “Inson-kompyuter” interaktiv (dialogik) muloqotning yangi takomillashgan pog’onasi bo’lib, bunda foydalanuvchi juda keng va har taraflama axborot oladi. Texnika vositalari asosida o’quvchilarga ta’lim va tarbiya berish hozirgi kunning dolzarb masalasidandir.

Texnika vositalari uning mazmun-mohiyati, kichik maktab yoshidagi o’quvchilar bilan olib boriladigan dars undan foydalanish metodikasi, multimediali didaktik o’yinlardan foydalanish usullari , tavsiyalar, amaliy ma’lumotlar muhimdir.

Mazkur texnika vositalaridan foydalanish, o’sib kelayotgan yosh avlodni intellektual salohiyatlari hamda faol shaxs qilib tarbiyalash uchun zamin yaratish, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, aqliy, axloqiy xislatlarini shakllantirishga ko’maklashishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsy javobgarli – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.-T.:”O’zbekiston”.2017.-B44
2. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1998. -b. 57.
3. O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda so’zlagan “O’zbekiston Konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo’lida va fuqarolik jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevordir” mavzusidagi ma’ruzasi. Xalq so’zi, 2009. 6-dekabr.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori-T.: “Sharq”, 1997, 57-bet.
5. Safo O. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. T.: O’qituvchi. 1997.
6. Sog’lom avlod - O’zbekiston kelajagi. O’zbekiston Bolalar jamg’armasi nashri. T.: O’zbekiston. 2001.
7. To’raqulov X.A. Zamonaviy kompyuter tarmoqlari bo'yicha multimediali elektron o’quv qo’llanma yaratish texnologiyasi //Uzluksiz ta’lim. 2011.
8. T.G'afforov va boshqalar Ona tili 1-sinf., T.:“Sharq”, 2017-yil
9. K.Qosimova va boshqalar Ona tili 2-sinf., T.:“Cho'lpon”, 2018-yil
10. Sh.Fuzalov va boshqalar Ona tili 3-sinf., T.:“O'qituvchi”, 2019-yil
11. R.Ikromov va boshqalar Ona tili 4-sinf., T.:“O'qituvchi”, 2017-yil
12. Uzluksiz ta’lim jurnali. 2002 yil 2-son, 2004 yil 6-son, 2005 yil 2-son, 2006 yil 4-son, 2008yil 6-son.
- 13.Tayloqov N.I., Olimov A.F Elektoron darsliklar o’qitish faoliyatining zamonaviy vositasi sifatida xalq ta’limi, 2009 yil 1-son 49-bet.